



ШАКАНА БИЗНЕС ДЕПАРТАМЕНТИ

Chiqish № 26/1-1339

«25» 10 2024 y.

“O‘zmilliybank” AJ Toshkent shaxar,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi va
barcha viloyatlar Bosh boshqarmalariga

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 22 dekabrda «2024 yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida»gi PF-213-sonli Farmoniga asosan “O‘zbekiston bo‘ylab sayoxat qil!” ichki turizmni rivojlantirish dasturi doirasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun dam olish va bayram kunlaridan samarali foydalanishni ta‘minlash maqsadida hamda 2024 yil 26-27 oktyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga navbatdagi saylovlar o‘tkazilishi munosabati bilan, barcha xodimlar uchun (ish haftasining turidan qat‘iy nazar) joriy yilning **26-27 oktyabr** kunlari dam olish kuni qilib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2024 yil 25 oktyabrdagi Respublikamizning barcha tijorat banklariga bergan topshiriqlariga asosan, 2024 yil 26-27 oktyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga navbatdagi saylovlar o‘tkazilishi munosabati bilan joriy yilning **26-27 oktyabr** kunlari tanlov asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shaxar Bosh boshqarmasi, shuningdek barcha viloyat bosh boshqarmalari tasarrufidagi valyuta ayirboshlash shoxobchalari, kassa tarmoqlari va Chakana amaliyotlar bo‘limlari faoliyat yuritishi hamda bankomatlarni doimiy ishchi holatda bo‘lishini nazorat qilish masalasi ko‘rsatib o‘tilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, valyuta ayirboshlash shoxobchalari, universal kassalar, to‘lov terminallari hamda bankomatlarning to‘laqonli faoliyat yuritishi va yetarli miqdorda qimmatliklar bilan uzluksiz ta‘minlanishini nazorat qilish maqsadida Sizdan, **joriy yilning 26-27 oktyabr** kunlari tanlov asosida ma‘sul xodimlarni ishga jalb qilishingizni so‘raymiz. (*ish vaqti: soat 10:00 dan 16:00 ga qadar*)

Chakana blokni
boshqaruvchi direktor

I.I. Mamajonov